THE IMAGE OF HAKIMS (SAGES) IN THE "KHAMSA" EPICS

Madina Tolibova Muzaffar qizi

Annotation

This thesis examines the functional role of the hakim (sage) figures in the five epics comprising Alisher Navoiy's "Khamsa". The study analyzes the roles of such hakims as Suqrot (Socrates), Arastu (Aristotle), Aflotun (Plato), Buzurg Ummid, Suhaylo, Balinos, Buqrot (Hippocrates), Jomosb, Luqmoni Hakim, and others in the plot development of the epics "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", and "Saddi Iskandariy". Based on the frequency of mention (statistics) of the hakims in the epics, their level of participation in each doston (epic) has been determined. As a result of the analysis, it has been scientifically proven that the hakims are not merely artistic copies of historical figures in the plot, but active participants who ensure the evolution of the characters, alter the course of events, and resolve complex conflicts.

Keywords

Alisher Navoiy, "Khamsa", image of hakims, wisdom (hiradmandlik), frequency, Suqrot (Socrates), Arastu (Aristotle), artistic-poetic expression, Sufism, doston (epic).

“XAMSA” DOSTONLARIDA HAKIMLAR SIYMOSI

Madina Tolibova Muzaffar qizi

Annotatsiya: Ushbu tezisda Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi besh dostonida hakimlar siymosining vazifaviy o‘rni o‘rganilgan. Tadqiqotda “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida uchrovchi Suqrot, Arastu, Aflotun, Buzurg Ummid, Suhaylo, Balinos, Buqrot, Jomosb, Luqmoni Hakim va boshqa hakimlarning syujet taraqqiyotidagi roli tahlil qilingan. Hakimlarning dostonlardagi tilga olinish chastotasi (statistikasi) asosida ularning har bir dostondagi ishtirok darajasi aniqlangan. Tahlil natijasida hakimlar syujetda shunchaki tarixiy shaxslarning badiiy nusxasi emas, balki qahramonlar

evolyutsiyasini ta’minlovchi, voqealar oqimini o‘zgartiruvchi va murakkab tugunlarni yechuvchi faol ishtirokchilar sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy dalillangan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Xamsa”, hakimlar siymosi, xiradmandlik, tasavvuf, Suqrot, Arastu, badiiy-poetik ifoda, chastota, doston.

Kirish: Alisher Navoiyning “Xamsa” asari o‘zbek mumtoz adabiyotining cho‘qqisi sifatida nafaqat badiiy qiymati, balki falsafiy-irfoniy mazmuni bilan ham ajralib turadi. Asar tarkibidagi dostonlarda donishmandlar, hakimlar va xiradmandlar siymosining muhim o‘rni bor. Ular syujet rivojida passiv kuzatuvchi emas, balki voqealarni harakatlantiruvchi, qahramonlarni ma’naviy kamolotga yetaklovchi, murakkab tilsimlarni yechuvchi va davlat boshqaruvida adolatni ta’minlovchi faol ishtirokchilar sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharq mumtoz adabiyotida “xirad” (hikmat) tushunchasi shunchaki dunyoviy aql-zakovatni emas, balki ilohiy ma’rifat bilan nurlangan “aqli kull”ni anglatadi. Hakim obrazining ontologik va gnoseologik mohiyati Firdavsiyning “Shohnoma”sidagi davlat arbobi (Buzurjmehr) maqomidan boshlanib, Nizomiy, Dehlaviy va Jomiy dostonlarida koinot sirlarini anglagan faylasuflar darajasiga ko‘tarilgan. Navoiy esa bu an’anani davom ettirgan holda hakimlarni ham amaliyotchi olim (muhandis, tabib), ham davlat maslahatchisi, ham nafsni yenggan tasavvufiy pir (murshidi komil) darajasida umumlashtirdi.

Hakimlarning syujetdagi vazifaviy o‘rni va chastotasi

Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi har bir doston o‘zining g‘oyaviy yo‘nalishi va janr xususiyatiga ko‘ra hakimlarning ishtirokini turlicha taqozo qiladi. Hakimlarning asar syujetidagi faolligi va ko‘lamini ularning dostonlardagi tilga olinish chastotasi orqali ko‘rish mumkin:

1-jadval

“Xamsa” dostonlarida hakimlarning tilga olinish chastotasi

№	Hakim nomi	“Hayrat ul-abror”	“Farhod va Shirin”	“Layli va Majnun”	“Sab’ai sayyor”	“Saddi Iskandariy”	Umumiy hisob
1.	Suqrot	0	23	0	0	14	37
2.	Arastu	0	2	0	0	32	34
3.	Aflotun/Filotun	0	1	1	0	15	17
4.	Buzurg Ummid	0	9	0	0	0	9
5.	Suhaylo	0	8	0	0	0	8
6.	Balinos	0	0	0	0	6	6
7.	Buqrot	0	2	0	0	4	6
8.	Jomosb	0	2	0	2	2	6
9.	Luqmon	0	1	0	1	4	6
10.	Hurmus	0	0	0	0	3	3
11.	Arashmidus	0	0	0	0	2	2
12.	Paylaqus	0	0	0	2	0	2
13.	Asqalinus	0	0	0	0	1	1
14.	Farfurnus	0	0	0	0	1	1
15.	Faysog‘urs	0	0	0	0	1	1
16.	Naqumohis	0	0	0	0	1	1
17.	Qilinmun	0	0	0	0	1	1
18.	Volis	0	0	0	0	1	1
19.	Shaminos	0	0	0	0	1	1

Izoh: Statistik ma’lumotlar “Xamsa”ning 2006-yilgi nashri (Porso Shamsiyev ilmiy-tanqidiy matni, nashrga tayyorlovchi Vahob Rahmonov) asosida tuzildi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, hakimlar siymosi “Saddi Iskandariy” (89 marta) va “Farhod va Shirin” (51 marta) dostonlarida eng ko‘p tilga olingan. “Hayrat ul-abror”

dostonida esa aniq ismli hakimlar syujet qahramoni sifatida ishtirok etmaydi. Bu holat har bir dostonning g‘oyaviy yo‘nalishi bilan bog‘liq.

Navoiy dostonlarida hakimlar, asosan, ikki yirik funksiyani ado etadi: bir tomondan qahramonlarni ma’naviy kamolotga yetaklovchi tasavvufiy pir (murshid) maqomida kelsa, ikkinchi tomondan davlat boshqaruvida adolatni ta’minlovchi siyosiy maslahatchi hamda murakkab tilsimlarni yechuvchi qomusiy olim (muhandis, tabib, munajjim) sifatida gavdalanadi.

“Hayrat ul-abror” va “Layli va Majnun” dostonlarida hakimlar

“Hayrat ul-abror” dostoni falsafiy-ta’limiy yo‘nalishda yozilgan bo‘lib, unda aniq ismli hakimlar (Suqrot, Arastu, Aflotun kabi) syujet qahramoni sifatida ishtirok etmaydi. Asarning bosh g‘oyasi islomiy axloq va komillik bo‘lgani uchun Navoiy ko‘proq umumiy “hakim”, “hikmat” tushunchasidan yoki shayxlar, pirlar siymosidan foydalanadi. A.Qayumov ta’kidlaganidek: “Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida lirik qahramonga aynan ‘xirad piri’ to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Xirad piri obrazi shoirning tafakkuridir”. Demak, bu dostonda xiradmandlik aniq bir hakim siymosi sifatida bevosita uchramasa-da, hakimlik ruhi asar mazmuniga to‘la singdirib yuborilgan.

“Layli va Majnun” dostonida ham tarixiy hakimlar siujet doirasidan chekinib, zarur o‘rinlardagina badiiy-estetik mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Asar sof irfoniy ishq va ruhiy iztiroblar tahliliga bag‘ishlangani uchun “hakim” tushunchasi o‘zining falsafiy maqomini yo‘qotib, ko‘proq jismoniy dardlarga davo izlovchi oddiy tabib ma’nosiga ko‘chadi. Majnunni davolashga urgan tabiblar ilohiy ishq dardi oldida insoniy ilm – tabobatning ojizligini ko‘rsatib beradi. Jadvalda ko‘rsatilganidek, Suqrot, Arastu va Aflotun nomlari mazkur asarda faqat bir martadan tilga olingan.

“Farhod va Shirin” dostonidagi hakimlar siymosi

Bu dostonda hakimlar obrazi g‘or ichida yashovchi, butun dunyo lazzatlaridan voz kechgan, koinot sirlarini o‘zida jamlagan “xirad piri” sifatida tasvirlanadi. Suqrot,

Buzurg Ummid va Suhaylo kabi hakimlar syujetda bevosita ishtirok etadi.

Suqrot obrazi Navoiy dostonlarida eng ko‘p murojaat qilingan siymolardan biridir (37 marta). “Farhod va Shirin”da u g‘or ichida uzlatga chekingan zohid, ayni paytda koinot sirlaridan ogoh bo‘lgan pir sifatida gavdalanadi. U Farhodga nafaqat tilsimlarni yechish yo‘lini, balki ilohiy ishq mohiyatini ham tushuntiradi — “murshidi komil” darajasiga ko‘tarilgan:

Erur g‘or ichra Suqroti yagona, Dema Suqrot, Buqroti zamona.

Shoir dastlab g‘ordagi donishmandni “Suqroti yagona” deb ataydi, so‘ng bu ta’rifni yetarli bilmay: “Yo‘q, uni faqat Suqrot dema, u o‘z zamonasining Buqrotidir”, deydi. Suqrot aql, mantiq va ruhiyat faylasufi, Buqrot esa tabobat ilmining asoschisi sifatida har ikki sohada komil bo‘lgan mutlaq hakimni tasvir etadi.

Suhaylo obrazi tilsim ko‘zgu sirini bevosita ochib bermaydi, sirni Suqrot hakim bilishini aytadi. Farhodga uch xatardan o‘tish maslahatini beradi, Samandar yog‘ini tutqazadi, bilmaganlarini o‘rgatadi. Bu obraz Farhodning birinchi homiysi, ilk piridir.

Buzurg Ummid – Xusrav Parvizning bosh vaziri, adolatli davlat boshqaruvida shohga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi dono maslahatchi. Bu o‘rinda Navoiyning ijtimoiy utopiyasi – jamiyat farovonligi adolatli shoh va dono hakim hamkorligiga bog‘liq ekani badiiy in’ikos topadi.

“Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida hakimlar

“Sab’ai sayyor” dostonida hakimlar bevosita syujet qahramoni sifatida ishtirok etadi. Bahrom Gur dardi ishqdan ekanini aniqlab, uning uchun yetti qasr qurishni maslahat bergan 400 hakim syujet rivojida muhim o‘rin egallaydi. **Paylaqus hakim** Sa’dning tushini ta’bir qilib, kelajagini aytadi hamda “Jomosbnoma” sirlarini ochadi. **Jomosb** kitobi “Farhod va Shirin” va “Sab’ai sayyor” dostonlari orasida g‘oyaviy ko‘prik vazifasini o‘taydi.

“Saddi Iskandariy” dostoni “Xamsa”ning hakimlar siymosi eng keng ko‘lamda namoyon bo‘ladigan qismidir (89 marta). **Arastu obrazi** Iskandarning bosh vaziri, ustozi va davlatning asosiy maslahatchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Iskandar taxtga chiqqanidan to umrining oxirigacha Arastuning o‘gitlariga amal qiladi. Arastu shunchaki tarixiy faylasuf emas, balki Iskandarning butun hayotini belgilab beruvchi markaziy ma’naviy qutbdir.

Arashmidus hakim – sirakuzalik buyuk matematik va muhandis Arximedning sharqoni nomi. **Naqumohis** – Aristotelning otasi Nikomaxning sharqona nomi bo‘lib, u Iskandarga bolaligidanoq ta’lim va tarbiya bergan. LVI bobda Iskandar huzurida Aflotun, Suqrot, Arastu, Buqrot, Hurmus, Balinos, Arashmidus kabi donishmandlar ishtiroki tasvirlangan.

E’tiborli jihati shundaki, donishmandlar qayerda va qanday holatda tasvirlanishidan qat’i nazar – xoh g‘orlarda uzlatga chekingan holatda (Suqrot, Paylaqus, Suhaylo), xoh shoh saroyida maslahatchi maqomida (Arastu, Aflotun, Buzurg Ummid) – ularning funksional ahamiyati zarracha o‘zgarmaydi.

Xulosa

1. Hakimlar asar syujetida shunchaki tarixiy shaxslarning badiiy nusxasi emas, balki qahramonlar evolyutsiyasini ta’minlovchi, voqealar oqimini o‘zgartiruvchi va murakkab tugunlarni yechuvchi faol ishtirokchilar sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Ularning dostonlardagi ishtiroki asarning g‘oyaviy yo‘nalishiga qarab o‘zgaradi: “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy”da ular bevosita syujet qahramoni bo‘lib, voqealar rivo‘iga ta’sir ko‘rsatsa, “Hayrat ul-abror” va “Layli va Majnun”da ko‘proq badiiy-estetik mezon vazifasini bajaradi.

3. Hakimlarning tilga olinish chastotasi bo‘yicha “Saddi Iskandariy” (89 marta) va “Farhod va Shirin” (51 marta) dostonlari yetakchi bo‘lib, “Hayrat ul-abror”

dostonida aniq ismli hakimlar uchramaydi. Bu ko‘rsatgich har bir dostonning g‘oyaviy-falsafiy yo‘nalishini aks ettiradi.

4. Navoiy uchun hakimlarning tarixiy realligi emas, balki asar bosh qahramoni ruhiyatidagi ziddiyatlarni hal qilish, ma’naviy kamoloti toptirishdagi vazifasi muhimroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. – Toshkent: Fan, 1987–2003.

2. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. (Porso Shamsiyev ilmiy-tanqidiy matni, nashrga tayyorlovchi Vahob Rahmonov).

3. Qayumov A. Navoiyshunoslikning yangi qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1987.

4. Komilov N. Navoiy tasavvufi. – Toshkent: Fan, 1996.

5. Mamadaliyeva Z.U. Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ramziy va majoziy obrazlar sistemasi. Filol. fan. d-ri (DSc) … diss. – Toshkent: O‘zMU, 2025. – 260 b.